

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Холбеков Абугани ЛИТЕРАТУРНЫЙ МЕТОД КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В АНАЛИЗЕ ТОТАЛИТАРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «1984»).....	8
2. Султанова Эътибор МЕХАНИЗМЫ ПОЛИТИКИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	15
3. Латипова Нодира МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ.....	21
4. G'afforova Mavlyuda JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI.....	29
5. Tagiyeva Gulsum, Tursunboyev Jahongir O'ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	38
6. Xolbekov Abdugani, Axmedov Tuychi IJTIMOIY XAVFLAR SHAROITIDA MAHALLANING ROLI VA ANAMIYATI.....	51
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РОЛИ ГОСУДАРСТВА: ПОЛИТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД.....	57
8. Хасанова Мавлюда, Низамов Шохрухжон РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФИЛИАЛАХ РОССИЙСКИХ ВУЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	63
9. Mannanova Nilufar BUYUK BRITANIYA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA KOMPETENSIYA MODELLARINING RIVOJLANISH AMALIYOTI.....	71
10. Berdimuratova Alima, Baymurzaev Azamat, Berdimuratov Nauriz JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI.....	78
11. Radjabova Aziza XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	87
12. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.....	93
13. Ergasheva Mehribon “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLATLARI.....	100
14. Mengliyev Atabek REPRODUKTIV SALOMATLIKNI BELGILOVCHI IJTIMOYIY DETEMINANTLAR: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	107


15. Джураева Анна, Сеитов Азамат СОЦИАЛЬНАЯ ЦЕНА УСТОЙЧИВОСТИ: УРОКИ КРИЗИСА 2008 ГОДА И РИСКИ “ГОЛЛАНДСКОЙ БОЛЕЗНИ” ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	118
16. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOYIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL.....	125
17. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAКATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	132
18. Kalanova Sabohat, Saidov Ulug‘bek RAQAMLI JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARINING DIFFERENSIATSIYASI.....	140
19. Toshbo‘riyeva Sevara TA‘LIM VA OILAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOYIY MOBILLIGIGA TA‘SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	150
20. Mannanov Erkin ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR.....	157
21. Артыкова Алёна ОРИЕНТАЦИЯ НА ЧЕЛОВЕКА: НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	164
22. Zaitova Sitara O‘ZBEKISTONDA KAM TA‘MINLANGAN OILALARNI MANZILLI QO‘LLAB- QUVVATLASH MEХANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	177
23. Raximjonova Gulzira DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL.....	186
24. Ro‘yiddinova Aisha O‘ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO‘RSATKICHLARDAGI O‘RNI.....	196
25. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEХANIZMLARI.....	203

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Raximjonova Gulzira,
O'zMU Sotsiologiya yo'nalishi
1-bosqich magistranti
e-mail: raximjonova.gulzira@gmail.com

DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA'MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O'RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21111895>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada davlat boshqaruvi shaffoqligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratining o'rni va ahamiyati sotsiologik hamda statistik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Jamoatchilik nazoratining davlat organlari faoliyati ochiqligi, hisobdorligi va samaradorligini oshirishga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, fuqarolarning boshqaruv jarayonlaridagi ishtiroki, ochiq ma'lumotlar tizimi, raqamli platformalar va jamoatchilik fikrining davlat qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati baholangan. Tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy tahlil, sotsiologik so'rov va kontent-tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijalar jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish davlat boshqaruvining shaffoqligi va samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, shaffoflik, jamoatchilik nazorati, raqamli monitoring, fuqarolik jamiyati, davlat xaridlari, statistik tahlil, raqamli boshqaruv.

Рахимжонова Гульзира
Магистрант 1-го курса направления
«Социология» НУУз
e-mail: raximjonova.gulzira@gmail.com

РОЛЬ ОБЩЕСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ ПРАВИТЕЛЬСТВА: СТАТИСТИЧЕСКИЙ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль общественного контроля в обеспечении прозрачности государственного управления на основе статистического и методологического анализа. Исследуется влияние общественного контроля на повышение открытости, подотчётности и эффективности деятельности государственных органов. Особое внимание уделяется участию граждан в процессах управления, развитию систем открытых данных, цифровых платформ и значению общественного мнения при принятии государственных решений. В исследовании использованы методы статистического анализа, сравнительного анализа, социологического опроса и контент-анализа. Полученные результаты

свидетельствуют о том, что совершенствование механизмов общественного контроля является важным фактором обеспечения прозрачности и эффективности государственного управления.

Ключевые слова: государственное управление, прозрачность, общественный контроль, цифровой мониторинг, гражданское общество, государственные закупки, статистический анализ, цифровое управление.

Rakhimjonova Gulzira

1st-year Master's Student in Sociology,
National University of Uzbekistan
e-mail: raximjonova.gulzira@gmail.com

THE ROLE OF PUBLIC OVERSIGHT IN ENSURING GOVERNMENT TRANSPARENCY: A STATISTICAL AND METHODOLOGICAL ANALYSIS

ABSTRACT

This article examines the role of public oversight in ensuring transparency in public administration through statistical and methodological analysis. The study explores the impact of public oversight on enhancing the openness, accountability, and effectiveness of government institutions. Particular attention is given to citizen participation in governance processes, the development of open data systems, digital platforms, and the significance of public opinion in governmental decision-making. The research employs statistical analysis, comparative analysis, sociological surveys, and content analysis methods. The findings indicate that improving public oversight mechanisms is a crucial factor in strengthening transparency, accountability, and efficiency in public administration.

Keywords: state administration, transparency, public control, digital monitoring, civil society, public procurement, statistical analysis, digital governance.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash va fuqarolarning boshqaruv jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Demokratik taraqqiyot yo'ldan borayotgan mamlakatlarda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish hamda davlat organlarining hisobdorligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri sifatida jamoatchilik nazorati instituti rivojlanib bormoqda [1].

Davlat boshqaruvida shaffoflik prinsipi zamonaviy boshqaruvning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Mazkur prinsip davlat organlarining faoliyati, qarorlari va moliyaviy resurslardan foydalanish jarayonlari haqida aholining erkin axborot olish imkoniyatlarini yaratishni nazarda tutadi. Shaffoflikning mavjudligi korrupsiyaning oldini olish, davlat xizmatlari sifatini oshirish va fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi [2].

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish, ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonuni hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan [3; 4].

Mamlakatimizda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlaridan biri sifatida "Ochiq budjet", "Mening fikrim", "Regulation.gov.uz", "Xalq qabulxonasi" va boshqa raqamli platformalarning joriy etilishi jamoatchilik nazoratining yangi shakllarini rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada fuqarolar davlat organlari faoliyatini

monitoring qilish, muammolarni ko‘tarish va qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda [5].

Jamoatchilik nazoratining ilmiy-nazariy asoslari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, T.Parsons, J.Habermas, R.Putnam, D.North, M.Weber singari olimlar davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy nazorat masalalarini tadqiq qilganlar [6]. O‘zbek olimlaridan M.Bekmurodov, A.Xolbekov, R.Ubaydullayeva, N.Latipova, N.Alikariyev, A.Alikariyeva va boshqalar fuqarolik jamiyati, ijtimoiy boshqaruv va jamoatchilik nazorati masalalarini milliy taraqqiyot nuqtayi nazaridan o‘rganganlar [7].

Shunga qaramasdan, davlat boshqaruvi shaffofligini ta‘minlashda jamoatchilik nazoratining statistik va metodologik jihatlarini kompleks tahlil qilish, uning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda raqamli transformatsiya sharoitidagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi davlat boshqaruvi shaffofligini ta‘minlashda jamoatchilik nazoratining o‘rni va ahamiyatini statistik hamda metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari:

- davlat boshqaruvi shaffofligi va jamoatchilik nazorati tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish;
- jamoatchilik nazoratining huquqiy-institutsional mexanizmlarini o‘rganish;
- davlat boshqaruvi shaffofligini baholashning statistik ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- O‘zbekiston va xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish;
- jamoatchilik nazoratini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

METODOLOGIYA

Davlat boshqaruvida shaffoflik va jamoatchilik nazorati masalalari siyosatshunoslik, sotsiologiya, davlat boshqaruvi hamda huquqshunoslik sohalarida keng o‘rganilgan ilmiy muammolardan hisoblanadi. Mazkur masalaga oid nazariy qarashlar davlat va jamiyat munosabatlarining evolyusiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Jamoatchilik nazoratining nazariy asoslarini shakllantirishda nemis sotsiologi Max Weberning byurokratiya nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, davlat boshqaruvi samaradorligi ratsionallik, qonuniylik va hisobdorlik tamoyillari asosida ta‘minlanadi [8]. Biroq byurokratik tizimning haddan tashqari markazlashuvi jamoatchilik nazorati mexanizmlarining rivojlanishini cheklashi mumkin.

Strukturaviy-funksionalizm namoyondasi Talcott Parsons jamiyatni o‘zaro bog‘liq institutlar tizimi sifatida baholab, davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi muvozanat ijtimoiy barqarorlikning asosiy sharti ekanligini ta‘kidlaydi [9]. Uning qarashlariga ko‘ra, jamoatchilik nazorati davlat institutlarining legitimligini mustahkamlaydi.

Jamoatchilik ishtirokining demokratiya rivojidadagi ahamiyati Robert Putnam tomonidan ijtimoiy kapital konsepsiyasi orqali asoslab berilgan. Olim fuqarolarning uyushganlik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda davlat boshqaruvi samaradorligi ham yuqori bo‘lishini isbotlagan [10].

Zamonaviy demokratiya sharoitida davlat boshqaruvining ochiqligi masalalari Jürgen Habermasning ommaviy makon nazariyasida muhim o‘rin tutadi. Uning ta‘kidlashicha, davlat qarorlarining jamoatchilik muhokamasi orqali qabul qilinishi demokratik boshqaruvning muhim belgisidir [11].

O‘zbekistonlik olimlardan professor M.Bekmurodov fuqarolik jamiyati institutlari va ijtimoiy boshqaruv muammolarini tadqiq etib, jamoatchilik nazorati ijtimoiy sheriklikning muhim mexanizmi ekanligini qayd etadi [12]. Professor A.Xolbekov esa davlat va jamiyat munosabatlarida ijtimoiy nazorat institutlarining ahamiyatini sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilgan [13].

So‘nggi yillarda elektron demokratiya, ochiq hukumat va raqamli boshqaruv konsepsiyalari doirasida jamoatchilik nazoratining yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. Bu holat mazkur institutning an‘anaviy shakllaridan raqamli shakllarga o‘tish jarayonini tezlashtirmoqda [14].

Mazkur tadqiqot davlat boshqaruvi shaffofligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratining o'rnini kompleks baholashga qaratilgan bo'lib, unda bir qator umumilmiy va maxsus ilmiy usullardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini institutsional yondashuv, tizimli tahlil, ijtimoiy boshqaruv nazariyasi hamda fuqarolik jamiyati konsepsiyasi tashkil etdi.

ASOSIY QISM

Jamoatchilik nazorati demokratik davlatning muhim institutsional mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlash orqali fuqarolar manfaatlarini himoya qilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, jamoatchilik nazorati davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik kuzatuvini amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir [1].

Ilmiy adabiyotlarda jamoatchilik nazoratining quyidagi funksiyalari ajratib ko'rsatiladi:

- nazorat funksiyasi;
- axborot funksiyasi;
- baholash funksiyasi;
- profilaktik funksiya;
- kommunikativ funksiya.

Jamoatchilik nazorati davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish bilan bir qatorda korrupsiya xavfini kamaytirishga ham xizmat qiladi. Tahlillar ko'rsatishicha, jamoatchilik ishtirokining yuqori darajasi davlat organlari faoliyati ustidan ijtimoiy monitoringni kuchaytiradi va davlat qarorlarining sifatini yaxshilaydi [15].

Zamonaviy davlat boshqaruvida jamoatchilik nazoratining sub'ektlari sifatida:

- fuqarolar;
- mahallalar;
- nodavlat notijorat tashkilotlari;
- ommaviy axborot vositalari;
- fuqarolik jamiyati institutlari;
- mustaqil ekspertlar ishtirok etadi.

Shu nuqtai nazardan jamoatchilik nazorati davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy muloqot mexanizmi vazifasini bajaradi.

Statistik tahlil uchun davlat organlari faoliyati ochiqligi, aholi murojaatlari, elektron davlat xizmatlari va fuqarolar ishtirokiga oid ma'lumotlar o'rganildi.

Tadqiqotning asosiy indikatorlari sifatida quyidagilar qabul qilindi:

1-jadval

No	Indikatorlar	O'lchov birligi
1	Axborot ochiqligi	%
2	Murojaatlarni ko'rib chiqish darajasi	%
3	Fuqarolar ishtiroki	%
4	Ochiq ma'lumotlar soni	birlik
5	Elektron xizmatlar qamrovi	%
6	Jamoatchilik ishonchi	ball

Ushbu indikatorlar davlat boshqaruvida shaffoflik darajasini baholash imkonini beradi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini ochiqlashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon aholi bilan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarning yangi modelini shakllantirmoqda.

2-jadval

Davlat boshqaruvida shaffoflikka ta'sir etuvchi omillarning ekspert bahosi

Omillar	Ulushi (%)
Axborot ochiqligi	27
Fuqarolar ishtiroki	21

Raqamli xizmatlar	18
Jamoatchilik nazorati	17
Hisobdorlik mexanizmlari	11
OAV faolligi	6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, axborot ochiqligi davlat boshqaruvi shaffofligini ta'minlovchi eng muhim omil sifatida baholangan. Shu bilan birga jamoatchilik nazorati ham yuqori ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlillarga ko'ra, elektron davlat xizmatlarining rivojlanishi aholi va davlat organlari o'rtasidagi byurokratik to'siqlarni qisqartirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida shaffoflikning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Dunyo amaliyotida davlat boshqaruvi shaffofligini ta'minlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ayniqsa, raqamli boshqaruv tizimlari yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmlari shakllangan.

Estoniya elektron hukumat tizimini joriy etish bo'yicha dunyodagi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda davlat xizmatlarining qariyb 99 foizi elektron shaklda ko'rsatiladi. Fuqarolar davlat organlari tomonidan o'z shaxsiy ma'lumotlaridan kim va qanday maqsadda foydalanganligini kuzatib borish imkoniyatiga ega.

Estoniya tajribasi jamoatchilik nazoratining raqamli shakli davlat boshqaruvi shaffofligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi. Elektron davlat xizmatlari inson omilini kamaytirib, korrupsiya xavfini pasaytirishga xizmat qilmoqda [16].

Singapur davlat boshqaruvida hisobdorlik va ochiqlikni ta'minlash bo'yicha yuqori natijalarga erishgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bu yerda davlat xizmatchilarining mas'uliyati yuqori darajada belgilangan bo'lib, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari davlat qarorlarining ijrosini doimiy monitoring qilib boradi.

Singapurda korrupsiyaga qarshi siyosatning muvaffaqiyati davlat organlari faoliyatining maksimal darajada ochiqligi va fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan yuqori ishonchi bilan izohlanadi [17].

Janubiy Koreyada "OPEN" (Online Procedures Enhancement for Civil Applications) tizimi orqali davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati ta'minlangan. Mazkur tizim murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonlarini onlayn kuzatish imkonini berib, korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qilgan [18].

3-jadval

Ayrim mamlakatlarda davlat boshqaruvi shaffofligi va jamoatchilik nazorati indikatorlari

Mamlakat	Elektron xizmatlar qamrovi (%)	Jamoatchilik ishtiroki (%)	Davlatga ishonch indeksi (%)
Estoniya	99	82	78
Singapur	97	79	83
Janubiy Koreya	96	76	74
O'zbekiston	78	62	68

Jadval ma'lumotlari rivojlangan mamlakatlarda raqamli boshqaruv va jamoatchilik ishtiroki yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham mazkur ko'rsatkichlar yildan-yilga o'sib bormoqda, ammo xalqaro ilg'or tajribalarni joriy etish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Jamoatchilik nazorati samaradorligining statistik tahlili:

Tadqiqot doirasida davlat boshqaruvi shaffofligi bilan jamoatchilik nazorati ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko'ra:

- jamoatchilik ishtirokining o‘shishi bilan davlat organlariga bo‘lgan ishonch darajasi o‘rtasida $r = 0,74$ korrelyatsiya aniqlandi;
- axborot ochiqligi va davlat boshqaruvi samaradorligi o‘rtasida $r = 0,81$ kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligi kuzatildi;
- elektron xizmatlar qamrovi va korrupsiya holatlarining kamayishi o‘rtasida $r = -0,68$ teskari korrelyatsiya qayd etildi.

3-jadval

Jamoatchilik nazoratining davlat boshqaruvi samaradorligiga ta’siri

Ko‘rsatkich	Korrelyatsiya koeffitsienti (r)
Jamoatchilik ishtiroki – davlatga ishonch	0,74
Axborot ochiqligi – boshqaruv samaradorligi	0,81
Elektron xizmatlar – korrupsiya darajasi	-0,68
Hisobdorlik – fuqarolar qoniqishi	0,77

Korrelyatsion tahlil natijalari jamoatchilik nazorati davlat boshqaruvi samaradorligining muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.

Regression tahlil

Davlat boshqaruvi shaffofligi (Y) quyidagi omillar orqali baholandi:

$$Y = a + b_1X_1 + b_2X_2 + b_3X_3$$

bunda:

X_1 – axborot ochiqligi;

X_2 – jamoatchilik ishtiroki;

X_3 – raqamli xizmatlar qamrovi.

Hisoblash natijalariga ko‘ra:

$$R^2 = 0,72$$

Bu davlat boshqaruvi shaffofligi o‘zgarishining 72 foizi mazkur omillar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi.

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, axborot ochiqligi va jamoatchilik ishtiroki davlat boshqaruvi shaffofligini ta‘minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Tahlillar mamlakatimizda jamoatchilik nazorati instituti rivojlanayotgan bo‘lsa-da, ayrim muammolar mavjudligini ko‘rsatdi.

Ular quyidagilardan iborat:

- aholining huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi;
- davlat organlari tomonidan ma‘lumotlarni e‘lon qilishda ayrim cheklovlarning saqlanib qolayotganligi;
- jamoatchilik ekspertizasi mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- NNT va OAVning ayrim hollarda resurs imkoniyatlari cheklanganligi;
- raqamli tengsizlikning mavjudligi.

Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Jamoatchilik nazoratining huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish;
2. Davlat organlarining hisobdorlik standartlarini kuchaytirish;
3. Ochiq ma‘lumotlar portallarini kengaytirish;
4. NNTlar va fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash;
5. Jamoatchilik ekspertizasini davlat qarorlari qabul qilish jarayoniga keng joriy etish;
6. Sun‘iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish asosida monitoring tizimlarini rivojlantirish.

Jamoatchilik nazoratining zamonaviy mexanizmlarini joriy etish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga va aholining davlat institutlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.


O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining amaldagi holatini baholash uchun raqamli tizimlardagi faollik ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz. Raqamli platformalarda jamoatchilik ishtirokining umumiy holati quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

1-jadval

Raqamli platformalarda jamoatchilik ishtiroki ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar turi / Platforma	Loyihalar / Murojaatlar soni	Bildirilgan fikr va e'tirozlar	Qabul qilingan takliflar ulushi
Regulation.gov.uz (Qonun loyihalari)	1,331 ta loyiha	24,500 dan ortiq	12.4%
Davlat xaridlari portali (Monitoring)	42,000 dan ortiq shartnoma	3,100 ta jamoat so'rovi	18.5%
Xalq qabulxonalari va portallar	1.2 mln murojaat	—	76.2% (ijro holati)

Statistik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, qonun loyihalari muhokamasida fuqarolar faolligi oshgan bo'lsa-da, kiritilgan takliflarning atigi 12.4% qismi davlat organlari tomonidan inobatga olingan. Qolgan 87.6% holatda jamoatchilik e'tirozlariga qaramay, qonun hujjatlari dastlabki tahrirda qabul qilingan yoki rad etish sabablari asoslab berilmagan. Jamoatchilik nazoratining vaqt bo'yicha o'zgarish dinamikasi (loyihalar oqimi va bildirilgan takliflar nisbati) quyidagi grafik monitoringida yaqqol ko'rinadi (1-rasm):



1-rasm. Jamoatchilik muhokamalarini dinamikasi (2022-2026)

Ushbu grafik tahlili shuni ko'rsatadiki, yillar kesimida jamoatchilik muhokamasiga qo'yilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari soni barqaror o'sib borayotgan bo'lsa-da (ko'k rangli ustunlar), fuqarolar kiritgan takliflarning qabul qilinish koeffitsiyenti (qizil chiziq) juda sekin sur'atda o'smoqda va kritik 15% lik dovardan yuqoriga ko'tarilmagan. Bu holat ijro hokimiyati tizimida jamoatchilik fikriga nisbatan "byurokratik immunitet" mavjudligidan dalolat beradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar davlat boshqaruvi shaffofligini ta'minlash yo'lida jamoatchilik nazorati mexanizmlarining ta'sirchanligini cheklovchi bir qator omillarni aniqladi:

- Jamoatchilik kengashlarining institutsional tobeligi: Vazirlik va hokimliklar huzuridagi Jamoatchilik kengashlari tarkibi asosan o'sha idora rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Bu ularning moliyaviy va tashkiliy jihatdan davlat organiga qaram bo'lishiga hamda xolis nazorat olib bora olmasligiga sabab bo'ladi.

- Huquqiy majburiyatning yo'qligi: Amaldagi qonunchilikda jamoatchilik ekspertizasi xulosalari davlat organlari uchun majburiy emas, balki "tavsiyaviy" xarakterga ega. Davlat organi ushbu xulosani asossiz rad etgan taqdirda hech qanday huquqiy javobgarlikka tortilmaydi.

- Axborot asimmetriyasi: Ayrim davlat organlari muhim moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni yoki ichki idoraviy buyruqlarni "xizmat doirasida foydalanish uchun" degan vajlar bilan yopiq qoldirmoqda, bu esa shaffoflik tamoyiliga ziddir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari davlat boshqaruvi shaffofligini ta'minlashda jamoatchilik nazorati muhim institutsional mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Jamoatchilik nazorati davlat organlari faoliyatining ochiqligi, hisobdorligi va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur institut demokratik boshqaruvning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan ijtimoiy monitoringni amalga oshirish imkonini beradi. U davlat qarorlarining qabul qilinishi va amalga oshirilishi jarayonlarida fuqarolar ishtirokini ta'minlab, davlat boshqaruvining legitimligini mustahkamlaydi.

Statistik tahlil natijalari axborot ochiqligi, jamoatchilik ishtiroki va raqamli xizmatlar qamrovi davlat boshqaruvi shaffofligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekanligini tasdiqladi. Korrelyatsion tahlilda jamoatchilik ishtiroki bilan davlat organlariga bo'lgan ishonch o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy bog'liqlik ($r=0,74$), axborot ochiqligi va boshqaruv samaradorligi o'rtasida kuchli korrelyatsiya ($r=0,81$) aniqlandi. Regression tahlil natijalari esa davlat boshqaruvi shaffofligidagi o'zgarishlarning 72 foizi mazkur omillar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.

Xorijiy mamlakatlar, xususan Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya tajribasi davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalar va ochiq ma'lumotlar tizimlarining keng joriy etilishi jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirishini ko'rsatdi. Mazkur tajribalardan foydalanish O'zbekistonda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va fuqarolar ishtirokini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida jamoatchilik nazorati tizimi rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolar ham aniqlandi. Ular qatoriga aholining huquqiy madaniyati yetarli emasligi, ayrim davlat organlarida axborot ochiqligi darajasining pastligi, jamoatchilik ekspertizasi mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi hamda raqamli tengsizlik muammolari kiradi.

Davlat boshqaruvi tizimini xalqchil va shaffof qilish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarining ta'sirchanligini tubdan oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- ✓ Mustaqil shakllantirish modeli: Jamoatchilik kengashlari tarkibini tuzish vakolatini davlat organlaridan olib, Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) milliy assotsiatsiyasi hamda fuqarolik jamiyati faollariga berish. Kengash raisini a'zolarining yashirin ovoz berish yo'li bilan saylash tizimini joriy etish.

- ✓ Huquqiy ta'sir mexanizmi: Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga jamoatchilik so'rovlariga qonuniy muddatda (15 kun) javob bermaganlik yoki asossiz rad etganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan yirik miqdorda jarima solish normasini kiritish.

- ✓ "Jamoat Nazorati" Yagona Platformasi: Mamlakatda barcha sohalaridagi jamoatchilik monitoringi natijalarini to'plovchi onlayn platformani ishga tushirish. Davlat organlarining jamoat fikriga munosabati asosida ularning "Ochiqlik va xalqchilik indeksi"ni real vaqt rejimida shakllantirish.

- ✓ Moliyaviy muvozanat: Jamoatchilik nazorati subyektlarining (masalan, NNTlar) mustaqil monitoring tadbirlarini o'tkazishlari uchun Davlat budjetidan to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy buyurtmalar ajratish ko'lamini kamida 2 barobarga oshirish.
- ✓ Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlovchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish.
- ✓ Ochiq ma'lumotlar bazalarini kengaytirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish.
- ✓ Jamoatchilik ekspertisasi va jamoatchilik muhokamalari amaliyotini rivojlantirish.
- ✓ Nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining nazorat funksiyalarini qo'llab-quvvatlash.
- ✓ Raqamli texnologiyalar asosida jamoatchilik monitoringi tizimlarini joriy etish.
- ✓ Aholining huquqiy va raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish.

Umuman olganda, jamoatchilik nazorati institutlarini yanada rivojlantirish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish va raqamli boshqaruv imkoniyatlaridan samarali foydalanish Yangi O'zbekistonda ochiq, hisobdor va samarali davlat boshqaruvini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Жамоатчилик нозорати тўғрисида»ги Қонуни. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.04.2018 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида»ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисидаги Фармони. – Тошкент, 2023.
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: О'zbekiston, 2021. – 464 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматларини ривожлантириш агентлиги материаллари ҳамда «Open Budget», «Mening fikrim», «Regulation.gov.uz» электрон платформалари маълумотлари. – Тошкент, 2024.
6. Weber M. Economy and Society. – Berkeley: University of California Press, 1978. – 1469 p.; Parsons T. The Social System. – New York: Free Press, 1951. – 575 p; Putnam R. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. – Princeton: Princeton University Press, 1993. – 258 p; Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere. – Cambridge: MIT Press, 1989. – 301 p; North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
7. Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. – Тошкент, 2020. – 312 б; Холбеков А.А. Бошқарув социологияси//Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2007. – 384 б; Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси. // “Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020.
8. Weber M. Economy and Society. – Berkeley: University of California Press, 1978.
9. Parsons T. The Social System. – New York: Free Press, 1951.
10. Putnam R. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. – Princeton: Princeton University Press, 1993.

11. Habermas J. *The Structural Transformation of the Public Sphere*. – Cambridge: MIT Press, 1989.
12. Бекмуродов М.Б. *Замонавий бошқарув социологияси*. – Тошкент, 2020. – 312 б.
13. Холбеков А.А. *Бошқарув социологияси//Ўқув қўлланма*. – Тошкент, 2007. – 384.
14. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010. – 597 p.
15. North D.C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
16. Estonia электрон ҳукумат тизими бўйича миллий статистика материаллари ҳамда OECD ҳисоботлари. OECD. *Government at a Glance 2023*. – Paris: OECD Publishing, 2023.
17. Singapore давлат бошқаруви ва коррупцияга қарши сиёсат бўйича материаллар. Transparency International. *Corruption Perceptions Index 2024*. – Berlin, 2025.
18. South Korea электрон бошқарув тизимлари бўйича материаллар. United Nations. *E-Government Survey 2024*. – New York: United Nations, 2024.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000